

Mamlakatimiz Iqtisodiyotiga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilish Masalalari

N. Ruzmetov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabas

Sh. Tuychiyev Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O.N.Xaitov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalarni boshqarish samaradorligi masalalaridan - investitsion faoliyatni boshqarishning yangi usullari va shakllarini izlab topish bilan bog'liqdir. Investitsiyalarni strategik boshqarish doirasida ichki audit katta ahamiyat kasb etadi. Korxonaning nazorat tizimida ichki audit eng ishonchli va samarali tizim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, risk, audit, xalqaro moliya bozori, portfel, fond birjalari, innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari.

O'zbekiston so'nggi yillarda jahon bozoriga kirish va rivojlangan mamlakatlar safidan o'rin olish maqsadida iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirmoqda. Yurtimizga kapital oqimi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ilg'or davlatlar tajribasidan foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev, "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan"⁶⁶, deb o'z fikrlarni bildirib o'tganlar.

Investitsiya kiritishga oid qaror qabul qilish uchun zarur umumiy mezonlardan biri makro darajada investitsion muhit yaratish va sarmoya kiritilayotgan obyektning investitsion jozibadorligini oshirish hisoblanadi. Har bir davlat o'zining investitsion xavfsizligini ta'minlashda, investitsion muhitni yaxshilashi, ya'ni mamlakatda investitsion oqimni ushlab turishi hamda iqtisodiy rivojlanishida past darajali inflyasiyaga etishish mexanizmini yaratishi lozim. Shundan kelib chiqib, investitsion xavfsizlik sohasidagi milliy manfaat- iqtisodiyotda multiplikator-akselerator samarasini yuzaga keltiruvchi mexanizmlarni yaratish hamda past inflyasiya asosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkonini berish darajasidagi investitsiya oqimini saqlab turish hisoblanadi.

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga ko'ra, xorijiy investitsiyalarning YAIMga nisbatan hajmi 25 foizdan oshmasligi kerak. Har bir mamlakat ichki investitsiyalari cheklanganligi sababli o'z iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida chet el kapitalini jalb qiladi. Biroq, bu indikatorning chegaraviy me'yordan ortib ketishi xorijiy investorlarga qaramlikni keltirib chiqaradi. Umumiy investitsiyalar hajmida ichki investitsiyalarning ulushi 75 foizdan past bo'lmasligi lozim. Hozirda jahon xo'jaligini globallashuvi jarayonida rivojlanayotgan mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan birga, ichki investitsiyalardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishi, shu mamlakatlar

iqtisodiy taraqqiyotining omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy investorlarni respublikamiz kapital bozoriga jalb qilish, ularni mamlakat fond bozoriga jalb qilish uchun qonun-qoidalarimiz nisbatan sodda, tushunarli va shaffof bo‘lishi lozim. Bu borada hozirgi kunda fond bozorining ushbu segmentini rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadigan ikkita asosiy omil mavjuddir.

Birinchisi, bu kapital bozorini ayrim segmentlarini umumiy qonun- qoidalardan tashqari maxsus me’yoriy hujjatlar orqali tartiblash amaliyotidir. Hozirgi kunda bunday holat aynan davlat obligasiyalari segmentida kuzatiladi.

Ikkinchisi, bu davlat obligasiyalar daromadlilikining bugungi kundagi pul qiymatidan past darajada ekanligi.

Ushbu obligasiyalar bo‘yicha joriy stavkalar 12 foizdan iborat. Markaziy bankning bugungi kundagi qayta moliyalash stavkasi 14 foizligini hisobga olsak, respublika banklari davlat obligasiyalarini sotib olish, ya’ni ushbu qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish qanchalik maqsadga muvofiq, degan savol tug‘ilishi mumkin. Undan ko‘ra, banklar uchun daromadlilik nuqtai nazaridan aholi va biznesga 17-25 foizda kredit berib, deyarli bir yarim yoki ikki barobar ko‘proq daromad olish afzal hisoblanadi. Har bir tijorat banki muayyan miqdordagi mablag‘ni Markaziy bankda majburiy rezerv sifatida ushlab turishi lozim. Bu Markaziy bankda har bir tijorat banki nomiga ochilgan hisobga ushbu mablag‘ni joylashtirib, doimo uning muayyan miqdorini ta’minlash bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston misoliga kelsak, agar respublika banklari davlat obligasiyalarini sotib olishsa, ya’ni ushbu qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritishsa, bu mablag‘lar majburiy rezervga joylashtirilgan naqd pul sifatida qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatimiz tijorat banklari Markaziy bankda ochilgan korrisobda majburiy rezerv sifatida naqd pul ushlab turish o‘rniga davlat obligasiyalari sotib olishlari mumkin. Bu mexanizm respublika Markaziy banki va Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan kiritilgan. Mazkur korrisoblarda naqd pul ushlab turish juda kam foiz stavkalarida daromad keltirishini hisobga olsak, tabiiyki, tijorat banklari uchun bu mexanizmning afzallik tomonlari yaqqol ko‘rinib turibdi. Bu amaliyot mamlakat fond bozorini “notug‘ri” shaklda yoki uslubda ishlashiga olib kelmoqda.

Jahon amaliyotidan kelib chiqsak, fond bozori tarkibida davlat obligasiyalari boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlar uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Davlat obligasiyalarining daromad stavkalari o‘z navbatida xavfsiz investitsiyalar bahosiniko‘rsatadi. Agar davlat qimmatli qog‘ozlari bozori likvidiligini va barcha turdagi investorlar uchun ochiqligini ta’minlab berolmas ekanmiz, boshqa muvaffaqiyatlar haqida gapirmasak ham bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar davlat qimmatli qog‘ozlarini likvidli ikkilamchi bozorga olib chiqolmasak, mahalliy fuqarolarga vaxorijiy investorlarga to‘g‘ri bozor narxlarida erkin savdo qilish imkoniyatini yaratib berolmasak, haqiqiy bozor mexanizmlariga asoslangan kapital bozoriniyarata olmaymiz.

2022 yil O‘zbekiston ilk bor valyuta birjasiga muddati 10 yil bo‘lgan umumiy qiymati 10 mlrd so‘mlik davlat obligasiyalarini joylashtirdi. Ushbu davlat qimmatli qog‘ozlarining o‘rtacha tortilgan foiz kupon to‘lovi mos ravishda, yillik 14,5 va 15 foizni (10 yillik obligasiyalar) tashkil etib, 10 yillik muddat uchun benchmark yaratildi. Shuningdek, umumiy hajmi 174,5 mlrd so‘mlik muomala davri 5 yil bo‘lgan obligasiyalar ham birjaga chiqarilgan.

O‘rta va uzoq muddatli davlat qimmatli qog‘ozlari emissiya qilinishi milliy valyutadagi past xatarli instrumentlarni chiqarish orqali mablag‘larni jalb qilish benchmarki bo‘lib xizmat qiladi, moliyaviy instrumentlarni diversifikasiyalash hamda moliya bozoriga yangi ishtirokchilarni (nerezidentlar, jismoniy shaxslar, sug‘urta kompaniyalari va boshqalar) jalb etish uchun zamin yaratadi. Davlat qimmatli qog‘ozlari bozorini rivojlantirish borasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan AQSh G‘aznachiligi o‘rtasidagi hamkorlik doirasida ushbu tashkilotning maslahatchilari tomonidan vazirlikka texnik ko‘mak ko‘rsatilishini ta’minlash zarurdir.

2020 yilning noyabr oyida London fond birjasida O‘zbekiston tomonidan milliy valyutada 2 trln so‘m hajmidagi suveren obligasiyalar joylashtirilgan edi. Xalqaro obligasiyalarning milliy valyutada chiqarilishi valyuta xatarlarini kamaytirishi hamda kelajakda ichki moliya bozoriga,

jumladan, davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni jalb qilish uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
2. Гапоненко В.Ф., Маргиев З.В. Экономическая и финансовая безопасность как важнейшая функция государства в современных условиях// Вестник Московского университета МВД России. – 2013г.
3. Iqtisodiy xavfsizlik. Ma'ruzalar matni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. 2014 yil.